

**RAQAMLI JAMIYAT VA FUQAROLIK ONGI : O‘ZBEKISTONDA
MEDIASAVODXONLIKNING IJTIMOY TA’SIRI**

Jahonova Malika Ibodullo qizi,

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

1-bosqich magistranti.

malikahodiyeva08@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli jamiyat sharoitida O‘zbekistonda mediasavodxonlik darajasi va uning fuqarolik ongiga ko‘rsatgan ijtimoiy ta’siri tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor ijtimoiy tarmoqlar, raqamli axborot platformalari orqali tarqatilayotgan axborotlarning aholi ongiga ta’siri, tanqidiy fikrlashga undovchi omillar va kontentni tahlil qilish ko‘nikmalarining shakllanishiga qaratilgan. Tadqiqotda kontent-tahlil, statistik o‘rganish va taqqoslash metodlaridan foydalangan holda, yoshlar va keng jamoatchilik orasida mediasavodxonlik darajasi hamda uning fuqarolik faolligi, ijtimoiy barqarorlik va axborot xavfsizligiga ta’siri o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar : axborot madaniyati, fuqarolik ongi, ijtimoiy tarmoqlar, mediasavodxonlik, raqamli jamiyat, tanqidiy fikrlash.

Аннотация. В данной статье анализируется уровень медиаграмотности в Узбекистане в условиях цифрового общества и его социальное влияние на гражданское сознание. Основное внимание уделяется воздействию информации, распространяемой через социальные сети и цифровые информационные платформы, на общественное сознание, факторам, способствующим развитию критического мышления, а также формированию навыков анализа контента. В исследовании с использованием методов контент-анализа, статистического изучения и сравнительного анализа рассматривается уровень медиаграмотности среди молодежи и широкой общественности, а также его влияние на гражданскую активность, социальную стабильность и информационную безопасность.

Ключевые слова: информационная культура, гражданское сознание, социальные сети, медиаграмотность, цифровое общество, критическое мышление

Abstract. This article analyzes the level of media literacy in Uzbekistan within the context of a digital society and its social impact on civic consciousness. The main focus is on the influence of information disseminated through social networks and digital information platforms on public consciousness, the factors encouraging critical thinking, and the development of content analysis skills. Using content analysis, statistical research, and comparative methods, the study examines the level of media literacy among youth and

the general public, as well as its impact on civic engagement, social stability, and information security.

Keywords: *information culture, civic consciousness, social networks, media literacy, digital society, critical thinking*

Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan XXI asrda inson faoliyatining deyarli barcha jabhalari raqamli tus ola boshladi. Bu o‘zgarishlar jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy qatlamlariga bevosita ta’sir qilgan holda, fuqarolarning axborot bilan ishlash madaniyatini, tanqidiy fikrlash darajasini va ijtimoiy faolligini qayta shakllantirmoqda. Ayniqsa, Covid 19 davrida jamiyatda raqamli platformalardan foydalanish ko‘lamining kengayishi mediasavodxonlik masalasini dolzarb ilmiy-ijtimoiy muammoga aylantirdi.

Mediasavodxonlik tushunchasi ilk bor XX asrning ikkinchi yarmida G‘arb ilmiy muhitida shakllana boshlagan bo‘lib, bu atama insonning axborot manbalarini to‘g‘ri anglay olish, tahlil eta olish va u orqali ongli ravishda qaror qabul qila olish qobiliyatini anglatadi. AQShlik tadqiqotchi Reni Hobbs mediasavodxonlikni “shaxsning axborotni topish, tushunish, tahlil qilish va uni tanqidiy qabul qilishga tayyor bo‘lish qobiliyati” sifatida talqin qiladi [1] (Hobbs, 2010). UNESCO esa bu atamani “demokratik jamiyatda faol ishtirok etuvchi fuqarolarni tayyorlovchi muhim ijtimoiy va pedagogik jarayon” deya ta’riflaydi [2] (UNESCO, 2011).

O‘zbek olimi, pedagogika fanlari doktori Murod Mamajonov esa mediasavodxonlikni “insonning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotida axborot vositalaridan ongli va maqsadli foydalanish madaniyati” deb izohlaydi (Mamajonov M., 2020). Uning ta’kidlashicha, mediasavodxonlik darajasining pastligi yolg‘on xabarlar, manipulyatsiya va axborotdan noto‘g‘ri foydalanish kabi ijtimoiy xavflarni kuchaytiradi [3].

Filologiya fanlari doktori, professor Nargis Qosimova fikricha mediasavodxonlik bu - ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondoshish va har bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondashish hamdir. [4]

Bunday sharoitda raqamli jamiyat tushunchasi ham dolzarb tus olmoqda. Raqamli jamiyat – bu raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan yangi turdagi ijtimoiy tuzilma bo‘lib, unda kommunikatsiya, axborot almashinuvi va hatto siyosiy ishtirok onlayn maydon orqali amalga oshadi. Yaponiyalik olim Hiroshi Ishii raqamli jamiyatni “inson hayotining barcha sohalarini raqamlashtirish orqali integrallashgan axborot muhiti” sifatida ko‘radi. [5] (Ishii, 2013).

Raqamli jamiyatda yashayotgan fuqarolar nafaqat texnologiyadan foydalanuvchi, balki axborot oqimlarida yo‘nalish bera oladigan, tanlab olish qobiliyatiga ega ongli subyektlar

sifatida shakllanishi zarur. Bu esa bevosita fuqarolik ongi tushunchasi bilan bog‘liq. Fuqarolik ongi – bu shaxsning davlat, jamiyat va o‘z huquqlari haqidagi tushunchalar tizimi, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy faolligidir. Germaniyalik olim Yürgen Habermas fikricha, “fuqarolik ongiga ega inson – bu axborot maydonida faol ishtirok etuvchi, ijtimoiy adolatni anglay oluvchi va o‘z pozitsiyasini demokratik yo‘l bilan ifoda etuvchi shaxsdir” [6] (Habermas, 1996).

O‘zbekistonda, so‘nggi yillarda raqamli islohotlar, elektron hukumat tizimi, internet platformalaridagi ochiqlik, ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi fuqarolarning axborotga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirmoqda. Biroq bu bilan birga noto‘g‘ri axborot, yolg‘on xabarlar (feyk), va ijtimoiy manipulyatsiyalar xavfi ham ortmoqda. Shu sababli, mediasavodxonlikni ijtimoiy ong va fuqarolik faolligi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish zarurati tobora ortib bormoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda mediasavodxonlik bo‘yicha sezilarli qadamlar tashlangan bo‘lsa-da, bu borada tizimli yondashuv va barqaror amaliyotlar hali ham shakllanish jarayonida. Xususan, 2024-yilda datareportal.com saytida e‘lon qilingan tahlillarga ko‘ra, aholi orasida internetdan faol foydalanuvchilar soni 30 millionga yetgan bo‘lsa-da, axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasi past darajada qolmoqda. [7]

Mediasavodxonlik darajasining pastligi, ayniqsa, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlarda feyk (yolg‘on) xabarlariga ishonish, internet orqali targ‘ib etilayotgan ekstremistik va salbiy kontentlarga berilish holatlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. XXI asr raqamli iqtisod, xususan sun‘iy intellekt asri hamdir. Ijtimoiy tarmoqlarda AI orqali rasm va videolarni sohtalashtirish, ovoz va ta’svirlarni qalbakilashtirish orqali omma ongiga ta’sir qilish holatlari ham uchramoqda. Instagramda [garmdori.tv](https://www.instagram.com/garmdori.tv) profili tomonidan yuklangan, sun‘iy intellektda tayyorlangan video muhokamalarga sabab bo‘ldi. Videoda o‘zbek ayollarini qadsizlantirish holati ko‘rsatilgan. Kontent ikki kunda 110 mingtadan ko‘p layk yig‘gan. Bu esa hali hamon jamiyatimizda mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash yetarli darajada emasligini ko‘rsatadi.[8]

Fuqarolik jamiyatida axborotni tanqidiy tahlil qila oladigan shaxslar ijtimoiy adolat, korrupsiyaga qarshi kurash, fuqarolik faolligi kabi jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi. Mediasavodxon shaxs – bu faqat ma’lumotni iste’mol qiluvchi emas, balki uni tahlil qila oluvchi, baholovchi va o‘z pozitsiyasini ifoda etuvchi fuqarodir. Polshalik olim M. Troszczynski fikricha, “mediasavodxonlik fuqarolik ongini shakllantirishda asosiy strategik vositadir, ayniqsa avtoritar jamiyatdan ochiq jamiyatga o‘tish jarayonlaridadir” [9].

Mediasavodxonlik fuqarolik ongining poydevori bo‘lish bilan birga, raqamli jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va axborot xavfsizligining kafolatidir. So‘nggi yillarda O‘zbekiston hududida noqonuniy diniy oqimlar, firibgarlik sxemalari, deepfake texnologiyalar asosida

tayyorlangan video-matnlar orqali keng jamoatchilik ongiga ta'sir ko'rsatishga urinishlar ko'paygan. Bu esa nafaqat axborot siyosati, balki ijtimoiy tafakkur, fuqarolik mas'uliyati va mediasavodxonlik masalalarini ham dolzarb etadi. Masalan, telegram messenjeri orqali yuborilayotgan apk fayllar, fuqaro kartalaridan pul yechib olinishi, ijtimoiy tarmoqlarda erkak jinsidagi vakillarning ayol nomidagi profillarni ochib olganligi shular jumlasidandir.



Mutaxassis G. Abdullaeva fikricha, “axborot xavfsizligi bo'yicha immuniteti past bo'lgan jamiyatlar har qanday provokatsiyaga beriluvchan bo'ladi, bu esa ijtimoiy barqarorlikka tahdid tug'diradi” [10]. Shu sababli, O'zbekistonda nafaqat texnik, balki ijtimoiy-psixologik yo'nalishda ham mediasavodxonlikni kuchaytirish strategiyasi ishlab chiqilishi zarur.

Bugungi kunda O'zbekistonning qator universitetlarida “Media va axborot savodxonligi”, “Axborot xavfsizligi”, “Tanqidiy fikrlash” kabi fanlar joriy etilmoqda. Biroq bu jarayon hali ham pilot tajriba doirasida qolayotganligi sababli, keng qamrovli strategik dasturlarga ehtiyoj yuqori. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari – masalan, nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT), bloggerlar va ommaviy axborot vositalari ham bu jarayonda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa

O'zbekiston jamiyati bosqichma-bosqich raqamli makonga integratsiyalashayotgan bir davrda mediasavodxonlik masalasi fuqarolik ongi, ijtimoiy barqarorlik va axborot xavfsizligi bilan chambarchas bog'liq ekani yaqqol namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aholining katta qismi, xususan yoshlar, raqamli axborot maydonida faol

bo‘lishiga qaramasdan, tanqidiy tahlil va axborotni baholash ko‘nikmalarida sustlik mavjud. Bu esa yolg‘on xabarlar, provokatsiyalar va ijtimoiy manipulyatsiyalarga nisbatan immunitetning pastligini anglatadi.

Maqolada keltirilgan faktlar va iqtiboslar asosida shuni ta’kidlash mumkin: mediasavodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda fuqarolik faolligi, davlat institutlariga nisbatan tanqidiy-yetuk munosabat, ijtimoiy adolatga intilish kuchliroq bo‘ladi. Aksincha, bu boradagi bo‘shliqlar fuqarolarning ongini zaiflashtiradi va ijtimoiy muvozanatga tahdid tug‘diradi.

Shuningdek, O‘zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan dastlabki ishlar — jumladan, ta’lim tizimiga mediasavodxonlik asoslarini joriy qilish, seminar-treninglar, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikdagi tashabbuslar — ijobiy natijalarni va’da qilmoqda. Ammo bu sa’y-harakatlar ko‘proq tizimlashtirish, institutsional yondashuv va barqaror strategik rejalashtirish orqali kuchaytirilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, mediasavodxonlikni rivojlantirish nafaqat axborotni to‘g‘ri qabul qilishni, balki ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishni, demokratik qadriyatlarni mustahkamlashni va axborot xavfsizligini ta’minlashni ham nazarda tutadi. Bu esa O‘zbekistonning zamonaviy raqamli jamiyat sifatida barqaror taraqqiy etishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hobbs, R. (2010). Digital and Media Literacy: A Plan of Action. Washington, D.C.: The Aspen Institute. P.18.
2. UNESCO. (2011). Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. Paris: UNESCO. P.4. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000192971>
3. Mamajonov, M. (2020). Mediasavodxonlikning nazariy-metodologik asoslari. O‘zbekiston pedagogik axborotnomasi, 4(1), 109–117. B. 112.
4. <https://uzhurriyat.uz/2016/04/05/mediasavodxonlik-va-u-nima-uchun-kerak/>
5. Ishii, H. (2013). The tangible future of the digital world. Interactions, 20(1), 204–211. DOI: 10.1145/2405716.2405737
6. Habermas, J. (1996). Between Facts and Norms: Contributions to a Discourse Theory of Law and Democracy. Cambridge, MA: MIT Press. P. 73.
7. https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan?utm_source=chatgpt.com
8. <https://www.instagram.com/reel/DMXRS4nKlTh/?igsh=MWUzdXJ1dnh1eTF4NQ==>

9. Troszczynski, M. (2020). Media Literacy as Civic Education in Post-Authoritarian Societies. Central European Journal of Communication, 13(2), 38–48.

DOI/Havola: <https://journals.ptks.pl/cejc/article/view/264>

10. Abdullaeva, G. (2022). Axborot xavfsizligi va fuqarolik ongining zamonaviy talqini. O‘zbekiston ijtimoiy fanlari jurnali, 5(3), 90–95.